BADIIY MATNLARDA PAREMIYALARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA BADIIY AHAMIYATI

Qurbonmurotov Ubaydulla Muxammadiyevich
TerDPI O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Badiiy matnlarda paremiyalarning funksional xususiyatlari va badiiy ahamiyati o'rganiladi, ularning mazmuniy, uslubiy va pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Maqol va matallar obrazlilikni kuchaytirish, milliy tafakkurni ifodalash hamda matnning ta'sirchanligini oshirishdagi roli asoslanadi. Shuningdek, ularning kontekstual qo'llanishi va lingvopoetik imkoniyatlari yoritiladi keng.

Kalit so'zlar: paremiyalar, maqol, matal, badiiy matn, funksional xususiyat, uslub, semantika, pragmatika, lingvopoetika, obrazlilik

Аннотация: В статье рассматриваются функциональные особенности паремий в художественных текстах, анализируются их семантические, стилистические и прагматические функции. Обосновывается роль пословиц и поговорок в усилении образности, выражении национального мышления и повышении выразительности текста, а также их контекстуальное использование и изучаются дополнительные аспекты.

Ключевые слова: паремии, пословицы, поговорки, художественный текст, функция, стилистика, семантика, прагматика, лингвопоэтика, образность

Abstract: This article examines functional features of paremias in literary texts, analyzing their semantic, stylistic, and pragmatic roles. It explains how

proverbs and sayings enhance imagery, express national mentality, and increase textual impact, highlighting their contextual usage and linguopoetic potential overall.

Keywords: paremias, proverbs, sayings, literary text, function, stylistics, semantics, pragmatics, linguopoetics, imagery

Paremiologik birliklar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Paremiologiya – barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Paremiologiya (lotincha. parema-barqaror, logos-ta'limot). Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarga: maqol, matal tasviriy ifoda,ibora,aforizm,hikmatli so'zlar kiradi. Badiiy asarda barqaror birikmalarni qo'llash qahramon nutqini aniq,ta'sirchan va bo'yoqdor ifodalash uchun hizmat qiladi.

Maqol – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikma. Abdulla Qahhor hikoyalariga epigraf (asar yoki hikoyaning asosiy ma'nosini ochib beruvchi va uning mazmunini ifodalaydigan sitata, ibora, maqol va shu kabilar) qilib berilgan maqollarga to'xtaladigan bo'lsak "bemor"hikoyasi epigrafi "osmon yiroq,yer qattiq", O'g'ri hikoyasi epigrafi "otning o'limi itning bayrami".

Bu maqollarni qo'llash orqali ijodkor o'z asar qahramonlari nutqini jozibali, bo'yoqdor ifodalash, shuningdek, asar mohiyatini ana shu maqol oqali ochib berishga harakat qiladi.

G'afur G'ulomning "Mening og'rigina bolam" hikoyasida," *turib yeganga turumtog' chidamas"deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu,qachon*

o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi! Chor nochor hayol surasan, kishi. Maqollar hayotning tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi. Maqollar ko'chma va o'z ma'nosida qo'llanilishi mumkin.

Matal – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, ko'chma ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikma. Matal-arabcha,birinchi navbatda tugal ma'no ifodalamaydigan masalan: *tuyaning dumi yerga tekkanda,qizil qor yog'ganda* . Matallar ham huddi maqollar singari hayotni uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasini ixcham tarzda ifoda topishidir. Matalda o'xshatish, taqqoslash, kinoya qochiriq so'z vositalaridan foydalinalidi.Milliy ensiklopediyada" Shamol bo'lmasa daraxtning shoxi qimirlamas",,"Qizim senga aytaman,kelinim sen eshit kabi matalga misol keltirilgan. Matallar ko'pincha boshqa bir jumla ichida qo'llaniladi.

Hikmatli so'z (aforizmlar) – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa obrazli barqaror birikma. Biz Alisher Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz uning oltinga teng ma'noli jumlalariga ko'zimiz tushadi. Hikmatli so'z va aforizmlarga hadislar, shoir va mutaffakirlarning, alloma va davlat arboblarining ma'noli so'zlari kiradi. Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik,mazmuniy yaxlitlik,takroriylik belgilariga ko'ra boshqa barqaror birikmalar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifi borligi bilan ulardan farqlanadi.

Masalan:

Odami dersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. (Alisher Navoiy).

Tilimizning tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas tuganmas xazinalar bor. (Maqsud Shayxzoda)

Muhammad Ali ko'zlarini katta ochib jiyanining she'r o'qishiga quloq solib turdi-da keyin kulib yubordi. Ofarin kichkina darvesh – dedi u jiyanining orqasiga qoqib qo'yib. - Beparvo rind oshiqlardanmiz degin. O't nafas bo'lsang dog'i, yirtiq chopon bo'lma. (Mirkarim Osim "Zulmat ichra nur").Til uslub uchun shaxmat taxtasiga shohdir. (K.Fedin)

Iboralar (frazeologizmlar) – ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar. Iboralarning ma'nosi odatda bir so'zga teng keladi. Iboralar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi. Shuninguchun ham badiiy adabiyotda ko'p qo'llaniladi. Rasmiy hamda ilmiy uslubda qo'llanilmaydi.

Namunalar:

1. Tepa sochi tikka bo'lmoq – achchiqlanmoq, 2. o'pkasini cho'pga ilgan – shoshqaloq, 3. Xamirdan qil sug'urgandek – oson, 4. Missi chiqmoq – oshkor bo'lmoq, 5. Yerga urmoq-kamsitmoq

Turgan joyimda terak qotib qoldim. Lo'lilar haqida shunaqa gaplar eshitgan edikki,nomi qulog'imizga chalinishi bilan ***sichqonning ini ming tanga bo'lib ketar*** *edi. Lo'li ko'chada yurgan bolani qopiga solib ketarmish. Uyda kattalar bo'lmasa, bolalarni bo'g'ib o'ldirarmishda, hamma narsani ship-shiydon qilib g'oyib bo'larmish. (O'tkir Hoshimov"Dunyoning ishlari"qissasidan).*

Tog'ay Murod "otamdan qolgan dalalar"romanida ***Tulki qiziga to'y beribdi*** *iborasini shunday izohlagan"qor laylaklab-laylaklab yog'di. Qor yerga tushib*

*tushmay yog'di. Laylakqor taqqa tindi. Yerda qor tugul namda bo'lmadi. Qor havosida bo'lmadi. O'ynab qo'yay, bunday havoning oti nima bo'ldi? Qor yog'madi deyin dedim havoda laylakqor o'ynadi. Laylaklab qor yog'di deyin yerda qordan nishona bo'lmadi. Dehqon bunday havoni: "**Tulki qiziga to'y berdi"**, – deydi. Indamay qo'ya qolay dedim-u, Marziya oldida **ammamning buzog'i** bo'lib o'tirgim kelmadi. (Asqad Muxtor "Davr mening taqdirimda"). Norjon ona Boydoda Muallimning **ko'z ochib ko'rgani**. (J.Abdullaxanov, "Xonadon"). Jinoyatchining kattasi-uning akasi Ziyodilla. **Pixini yorgan tullak**. (H.G'ulom, "Mash'al"). Moyi tugab, Piligi **so'xta** bo'lgan chiroq lib etib so'ndi.(Said Ahmad "Hukm").*

*E, meni endi ko'ryapsizmi Muyassarxon,eski bilganingiz sassiq chol-**so'xtasi sovuq** Yaxshiboyman-da.(M.M.Do'st "Lolazor").*

Sichqoning ini ming tanga – bu ibora kishi qochishga joy topa olmay qolgan paytini ifodalaydi.Yashirinishga joy imkon topolmagan inson hatto sichqonning inini ming tangaga olishga tayyor. Yozuvchi asarda qahromon nutqiga yanada jozibadorlik baxsh etish,uning holatini aniq aks ettirish uchun bu iboradadan foydalangan. Bu iboraning ***sichqoning ini ming tanga bo'ldi, sichqoning ini ming tanga bo'lib ketdi, sichqoning inini ming tanga qilib yubormoq*** variantlari bor.

Ammamning buzog'i iborasi – bu ibora xalq tilida, nutqida ham juda faol. Haqoratli ma'noda, bepisandlik bilan qo'llaniladi va hech bir ishni eplolmaydigan; lavang, shudsiz ma'nolarini anglatadi.

Ko'z ochib ko'rgani – bu iboraning paydo bo'lishi chimildiqdagi oyna tutish udumi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Oldinlari to'ydan so'ng kelin – kuyovga oyna tutilgan, ular bir-birini ilk bor oynada ko'rgan.

Boshqa bir taxminga ko‘ra ko‘z ochib ko‘rgani kengroq ma’noni – tug‘ilganda ilk bor ko‘zi tushishni anglatgan. Keyinroq iboraning ma’nosi torayib ko‘proq nikoh bilan bog‘liq mazmunda ishlatila boshlagan. kengroq ma’noni – tug‘ilganda ilk bor ko‘zi tushishni anglatgan. Keyinroq iboraning ma’nosi torayib ko‘proq nikoh bilan bog‘liq mazmunda ishlatila boshlagan.Yozuvchi bu iborani go‘zal tarzda qo‘llagan.

Tasviriy ifoda (parafrazalar) – bir narsaning ikkinchi nomi tasvirlab aytilishi masalan: zangori ekran-televizor, zangori olov-tabiiy gaz. Shu asnoda oq oltin tasviriy ifodasi paxtaning ikkinchi nomi bo‘lib qolgan. Tasviriy ifodalar hozirgi o‘zbek tilida ko‘plab yuzaga kela boshlagan.

Hayotimiz qomusi – konstitutsiya tasviriy ifodasi mustaqillik davrida paydo bo‘lgan. Badiiy adabiyotda ham keng foydalaniladi.

Nutqimizda maqol, matal, tasviriy ifoda, hikmatli so‘zlar va iboralardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati hisoblanadi. Badiiy adabiyotda esa biz kitobxonlarga qahromonlar xaarakterini ochish,asar mohiyatini tushunish va unga to‘g‘ri xulosa berishga yordam beradi.

Buyuk allomalarimizning purma’no hikmatli so‘zlari bizni ezgulik sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2018.
3. Muxtor A. Davr mening taqdirimda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1984.
4. Do‘st M.M. Lolazor. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Hamrayeva O. Ona tili: ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: 2012.

6. G'ulom H. Mash'al. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1975.
7. Osim M. Zulmat ichra nur. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1989.
8. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).